

MINTAQALAR VA MA'MURIY HUDUDLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INVESTITSIYA BILAN TA'MINLOVCHI IQTISODIY TIZIM SIFATIDA

Ikromov. E. I.

Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *O'zbekistonda amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijasida YaIMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 56,7 foizni tashkil etmoqda. Tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlat qatoridan joy oldi. Shu bois iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning hozirgi bosqichida mintaqalarda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlikni amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, valyuta siyosatini liberallashtirishidan unumli foydalanish va shu asosda mamlakatimiz mintaqalarida investitsiya muhitini yanada yaxshilash dolzarb masala hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik sub'ektlari, investitsiya, mintaq iqtisodiyoti, mintaq iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, investitsion loyihalar, investitsion jozibadorlik, samaradorlik.*

Tadbirkorlik sub'ektlarining milliy va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlashda uning zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollanganlik darajasi muhim o'rin tutadi. Ushbu darajaga aynan investitsiyalar hisobiga erishiladi. Investitsiyalar iqtisodiy jarayonlar zanjirining bir bo'g'ini bo'lib, iqtisodiy o'sishdagi sifat o'zgarishlarining asosiy manbai hisoblanadi. Investitsiyalar o'zlik yoki chetdan jalb qilingan mablag'lar hisobiga bo'lishidan qat'iy nazar, investor manfaatdorligidan kelib chiqadi. Aynan manfaatdorlikni oshirish tuyg'usi sarmoya jamg'arilishi uchun asos bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, tadbirkorlik faoliyati uchun investitsiya jalb qilish ham sarmoyador, ham tadbirkor manfaatlarining birligini ifodalaydi. Investitsiyaviy sarmoyaning jamg'arilishi uchun iste'mol darajasi o'sishini cheklash yoki kechiktirish talab etiladi.

Boshqa tarafdin esa, iste'moldagi cheklov iste'molchi tanlovini yangi pog'onaga ko'taradi, iste'moldagi tarkibiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Ya'ni, iste'molni cheklash jamg'arishni vujudga keltiradi. Jamg'armalar esa investitsiya ko'rinishida yangi ish joylari barpo etishga xizmat qiladi. Yangi ish joylari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini orttiradi. Bunday rivojlanish hisobiga daromadlar ko'payadi. Daromadning ko'payishi iste'molning ortishiga to'g'ri mutanosib (proporsional) ta'sir qiladi. Bunda iste'mol sur'ati daromad sur'atidan pastroq bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Ushbu tafovut yana jamg'armaga, so'ngra investitsiyaga ta'sir ko'rsatadi.

Demak, iqtisodiy jarayonlar zanjirining har bir bo'g'inidagi faollik boshqa bo'g'im faolligiga zamin yaratadi. Natijada barqaror iqtisodiy o'sishning manbai bo'lgan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol, jamg'arish va investitsiyalarning o'zaro hamjihat aloqadorlikdagi yaxlitligi barpo etiladi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Biroq, mana shu yaxlit aloqadorlikni ta'minlash mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning hozirgi sharoitida qiyinchilik bilan kechmoqda. Chunonchi, mamlakat hududlari va mintaqalaridagi tafovut kamayishiga erishilmayapti.

Xorij tajribasi va nazariy-ilmiy xulosalarda tasdiqlanishicha, qiyinchiliklarni bartaraf etuvchi kuch aynan tadbirkorlik faoliyati bo'lsa, uning asosiy omili va manbai vazifasini investitsiyaviy siyosat tashkil etadi. O'z navbatida investitsiyaviy siyosat yo'nalishlari, sohalari va manbalarini o'zaro muvofiqlashtirish orqali ishlab chiqarishda bozorga moslashuvchanlik, import o'rnini bosish va eksportga yo'naltirish faoliyati ta'minlanadi. Oqilona investitsiyaviy siyosat mehnat va kapital unumdorligini oshiradi, iste'molchi talabini sifatli mahsulotlar bilan qondirishga yo'l ochadi.

Biroq, investitsiyaviy siyosatda zaiflikning namoyon bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Bu zaiflik bir tomondan sarmoyalar serchiqimligi va mahsulotlar qimmatlashuvi kabi vaziyatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ikkinchi tomondan, ayrim sohalardagi investitsiyaviy taqchillik tadbirkorlik salohiyatidan foydalanish darajasini cheklab qo'yadi. Masalan, Respublikamiz amaliyotida ham loyihaviy quvvatlarni ishga tushirishda kechikish yoki uzilishlar uchrayib turibdi. Loyiha quvvatini o'zlashtirishning kechikishi boshqa tarmoqlar rivojiga pand beradi. Ko'rinadiki, investitsiya faoliyati ishchi o'rinlari barpo etish bilan ish bilan bandlik va daromad ortishini, shuningdek, mahalliy va jahon bozorida raqobatbardoshlikni bog'lab turuvchi omil tadbirkorlik mahoratining o'zlashtirilganlik darajasidir.

Tarmoqlararo, hududlararo tafovutlarga, ishlab chiqarish kuchlari joylashuvdagi nomutanosiblikka barham berishda, mintaqaviy iqtisodiyot tarmoqlarini texnik-texnologik jihozlash, milliy va xorijiy bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlashda investitsiyaviy mablag'lar hajmi, salmog'i va samaradorligining ahamiyati ortib bormoqda. Ayni chog'da, investitsiya resurslari mabalarini kengaytirish, ularning himoyalanganligini ta'minlash va rag'batlantirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish sohasida kuchli investitsiyaviy siyosat dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bu dasturlarda investitsiya mablag'larining turli manbalaridan foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. Endilikda davlat mablag'lariga nisbatan nodavlat mablag'larining salmog'ining ortib borayotganligi diqqatga sazovordir. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri hamda davlat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar bilan bir qatorda xorijiy moliyaviy tashkilotlarning kredit resurslari ham salmoqli o'ringa ega bo'lmoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasini modernizatsiyalashda lizing operatsiyalari hajmi ortishi kuzatilmoqda. Biroq, investitsiyalarning o'sish sur'atlari, muammolarni hal qilishda, tadbirkorlar tashabbuskorligi va bunyodkorligini ta'minlashda jiddiy siljishlarga va faollashuvga erishish zarurati ortmoqda. Bu zaruratni tadbirkorlik salohiyati bilan birgalikda amaliyotga tatbiq etish iqtisodiy o'sishdagi barqarorlik va aholi farovonligining mustahkam negizi hisoblanadi.

Yuqoridagi makroiqtisodiy tadbirlarning amaliy natijalarini ham tashkiliy-iqtisodiy, ham moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar izchilligida kuzatish mumkin. Avvalo, xususiy biznes va tadbirkorlik ko'lami jiddiy kengayib borayotganligini ta'kidlash lozim.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Yuqoridagi natijalarning qiyosiy tahlili iqtisodiy salohiyat ko'lamini va unumdorligini jiddiy oshirish zarurligini ko'rsatadi. Masalan, har yili yaratilayotgan yangi ish o'rinlari soni mehnat resurslarining tabiiy o'sish darajasini qiyinchilik bilan qoplayotganligi raqamlardan ma'lum bo'lmoqda. Iqtisodiy o'sish va tadbirkorlik masalalariga oid ushbu nuqtai nazar hozirda ham dolzarb hisoblanadi. Tadbirkorlik muhitini yaxshilashning yana bir yo'nalishi mintaqamizdagi chegaradosh mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarning rivojlanish sur'atidir.

Mehnat taqsimoti bir tomondan, ixtisoslashuvga asos bo'lsa, ikkinchi tomondan, mintaqalar va mintaqalararo savdoning shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. O'z navbatida, ixtisoslashuvning rivoji iqtisodiy integratsiyada o'z ifodasini topadi. Tadbirkorlik va tadbirkorlik sohiblari xalqaro savdo tufayli jahon bozoridagi o'z mavqelarini mustahkamlashga intiladilar.

Bu intilishning muntazam takrorlanishi raqobatlashuv jarayonida namoyon bo'ladi. Raqobatlashuv sharoitidagi sub'ektlar faoliyati — sotib olish uchun sotish tamoyiliga nisbatan — sotish uchun sotib olish tamoyilining ustuvorligiga erishish uchun intiladilar.

Ushbu tamoyil tadbirkorlik faoliyatida mintaqaviy tizimlar uchun import o'rnini bosadigan ishlab chiqarish yoki eksport uchun ishlab chiqarish kabi bir tomonlama tamoyillardan voz kechishni, ayni paytda kamroq sotib olib, ko'proq sotish tamoyiliga amal qilishni taqozo etadi.

Bundan tashqari, ushbu tamoyillar bilan bir qatorda quyidagi shartsharoitlarga amal qilishni taqozo etilmoqda:

- manfaatdorlik asosidagi faol hamkorlik;
- qarashlardagi har qanday tafovutni ochiq muloqot bilan hal etish;
- mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;
- tinchlik va barqarorlikni ta'minlash asosida milliy va umumjahon muammolari (qashshoqlik, ishsizlik va boshqalar) yechimida faol ishtirok etish va boshqalar.

Modomiki, tadbirkorlik muhitining zaruriy shart-sharoitlari barpo etilgan ekan, uning faoliyati uchun monelik qiladigan kuch ham barham topadi. Biroq, tadbirkorlik muhitini rivojlantirish va takomillashtirish ma'muriy va direktiv yondashuv bilan amalga oshmaydi. Mintaqaviy miqyosda tadbirkorlik muhitini boshqarish tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay bo'lgan sharoitda faoliyat ko'rsatishga oid choralar ishlab chiqish va tatbiq etishni talab qiladi.

Sohada erishilgan tub siljishlarni sobiq ma'muriy buyruqbozlik tizimi davridagi yondashuvlar bilan taqqoslaylik. Akademik N.N.Nekrasov ta'rifiga ko'ra, mintaqaviy iqtisodiyot mamlakat ishlab chiqarish kuchlari mintaqaviy rivojlanishning iqtisodiy strategik pozitsiyalarini ishlab chiqadi. Ishlab chiqarish kuchlarini maqsadga muvofiq joylashtirish mintaqaviy iqtisodiyotning asosi, bosh tarkibiy qismi.

Oradan qariyb 30 yil o'tmasdanoq ta'rifning cheklanganligi ma'lum bo'ldi. Chunki, unda ishlab chiqarish kuchlari deyilganda ish kuchi va ishlab chiqarish vositalari yig'indisi tushunilganligi sababli, bunda iqtisodiy omil bo'lgan tadbirkorlik nazardan chetda qolgan. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tadbirkorlik omili ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillaridan mustaqil ravishda qaraladi. Bizningcha,

mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etar ekanmiz, mintaqadagi tadbirkorlik muhiti mustaqil tadqiq qilinishi, mintaqaviy iqtisodiyot mintaqaviy tadbirkorlik muhitiga baho berishi, uni takomillashtirishi lozim. Shuning uchun ham mintaqalar miqyosida olib borgan tadqiqotlarimizda viloyatlardagi tadbirkorlik muhitini alohida qarab chiqishni lozim topdik.

Tadbirkorlik muhitini tarkib toptirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- jamiyat a'zolari psixologiyasi o'zgarishi bilan bog'liq ravishda ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurning o'zgarishi;
- tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi milliy dasturning mavjudligi.

Qulay tadbirkorlik muhiti shuningdek, aholi iqtisodiy faolligining bosh manbai ham hisoblanadi. Bunda aholi bandligi va daromadi oshishi uchun sharoit yaratiladi, ijtimoiy iqlim aholi turli qalamlari o'rtasidagi ziddiyatlar yumshashiga, hamkorlik tarkib topishiga hissa qo'shiladi, bozor munosabatlariga moslashuv tezlashadi, mulkdorlar sinfi shakllanadi. Har bir fuqaro, nafaqat o'z ishchi kuchini, balki moddiy, moliyaviy va intellektual mulkini ham iqtisodiy munosabatlar jarayoniga jalb etadi. Tadbirkor bunday muhitda iqtisodiy vaziyatning qaltis tebranishlariga ham mos bo'lgan choralarni tatbiq etadi, o'z faoliyatini asoratsiz o'zgartiradi. Mabodo ayrimlar xonavayron bo'lgan taqdirda, qayta tiklanish uchun ijtimoiy himoya ham tarkib topadi. Bunday sharoitda mamlakat, mintaq yoxud biror mintaq uchun fojiali iqtisodiy oqibatlar ro'y bermaydi.

Mintaqalarda tadbirkorlik muhitining takomillashuvi har bir shaxs uchun o'z kelajagini yaxshiroq boshqarish imkoniyatini kengaytiradi. Ularda qobiliyati va iste'dodini oshirish uchun jiddiy e'tibor ortadi. Shaxsiy hayot va milliy turmush tarzining yaxlitligi milliy boylik va milliy farovonlik o'sishiga xizmat qiladi.

Demak, milliy-mintaqaviy iqtisodiyot taraqqiyoti va samaradorligi tadbirkorlik muhitiga bevosita bog'liq. Boshqacha aytganda, u bunday muhitda iqtisodiy xudbinlik, ijtimoiy hamkorlik, uyushqoqlik va hamjihatlikni tarkib toptiradi. Ya'ni, bozor iqtisodiyotining buyuk nomoyandasi ta'kidlagan ko'rinmas qo'l tamoyili o'z ijobiy natijasini beradi. Darhaqiqat, tadbirkorlik muhitining tarkib topishi bilan bog'liq va unga ta'sir etuvchi omillarni guruhlash, shu asosda tadbirkorlik muhiti tarkib topishi va rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy modelini hosil qilish mumkin.

Tadbirkorlik muhitining tarkibiy omillari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- aniq bir mahsulotga nisbatan iste'molchilarning to'lov qobiliyati. Bunda bozordagi haqiqiy talab bilan kutilayotgan talab farqlanadi, tovar o'zining xususiyatlari bilan avvalgilaridan ajralib tursa, iste'molchining talabi marketing usullari bilan aniqlanadi;
- tavakkalchilik va bozordagi xatarlarni o'ziga olib, mulkiy javobgarlik asosida ish yurita oladigan tadbirkorlik. Bu toifadagi tadbirkorlar o'z mulki, bilim va sarmoyasini samarali ishlata oladigan, bozordagi qaltis vaziyatlarga moslasha olish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim;
- investitsiya qo'yishga imkoniyatli investorlar. Bunga ijtimoiy shaxslar, erkin sarmoyaga ega korxonalar, tashkilotlar hamda tadbirkorlarning o'zlari kiradi: banklar,

jamg'armalar, sug'urta kompaniyalari, davlat tashkilotlari, chet el sarmoyadorlari va boshqalar;

- tadbirkorlik faoliyatini bir me'yorda olib borish imkoniyatlarini beruvchi infratuzilmalar. Ular qatoriga moliya-kredit, audit, marketing, konsalting, axborot, sug'urta va shu kabi xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar kiradi;

- qaror qabul qilish tizimi. Bu tizim tarkibiga avvalo biznesning ishonchliligi va samarali bo'lishini baholash imkonini beruvchi mezonlar, usullar to'plami kiradi. Tadbirkor bu tizim orqali o'z ish natijasini baholash imkoniga ega bo'lishi kerak.

Shu omillarning tizimli va o'zaro hamjihat harakati qonuniyatlari tadbirkorlar faolligini oshiradi. Masalan, iste'molchi talabi omilini tahlil etaylik. Har bir mintaqadagi iste'molchining talabini aniqlash tadbirkordan katta malaka talab qiladi. Ayni chog'da tadbirkor tashqi bozordagi vaziyatni kuzatish va xolis baholay olishi muhim. Milliy to'lov qobiliyati, tabiiy shart-sharoitlar va boshqalarni hisobga ola bilish tadbirkorning muhit bilan jiddiy munosabatda ekanligidan dalolat beradi.

Mashhur tadbirkor L.Vinning ta'kidlashicha, iste'molchi, bu-o'ta muhim shaxs. Iste'molchi bizga bog'liq emas, balki biz unga bog'liqmiz. U ishimizga halaqit bermaydi, aksincha, u bizning ishimizda bosh maqsad va mantiqdir. Iste'molchi shunday shaxski, u bilan tortishib bo'lmaydi. U bilan tortishib, hech qachon, hech kim yutgan emas! Demak, iste'molchini jalb qilish tadbirkorning bosh muammosi va maqsadidir.

Tadbirkorlik muhitining jozibadorligini aniqlashda o'rganilayotgan mintaq aholisining markazlarda gavjumligi va aholi yashash joylarining o'zaro qanday masofadaligi ham muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. EI, I. JAHON SAVDO KO 'RSATKICHLARI ISTIQBOLI VA BUNDA O 'ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI UCHUN IMKONIYATLAR.
2. EI, I. (2024). O 'ZBEKISTONDA MAKROIQTISODIY KO 'RSATKICHLAR O 'ZGARISHLARINING 2022 VA 2023 YILLAR VA TARMOQLAR MIQYOSIDA TAHLILI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(3), 44-52.
3. EI, I. (2024). YALPI ICHKI MAHSULOT TUSHUNCHASI VA UNI HISOBLASHNING ASOSIY SHARTLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 266-274.
4. Ibodulloyevich, I. E. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innovacje.*, 51, 258-266.
5. EI, I. (2024). MAKROIQTISODIY KO 'RSATKICHLARNNG O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 275-281.

6. EI, I. (2024). BUXORO VILOYATIDA CHORVACHILIK TARMOG 'I YASHILLASHISH HOLATI TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 165-171.
7. EI, I. (2024). MILLIY KOMPANIYALAR RAQOBATBARDOSHLIGI OMILLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 168-174.
8. EI, I. (2024). EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 175-182.
9. EI, I. (2024). QISHLOQ XO 'JALIGI TARMOQLARINI YASHIL IQTISODIYOT ORQALI RIVOJLANTIRISH YO 'LLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 172-180.
10. EI, I. (2024). KORXONALARDA RAQOBATBARDOSH EKSPORTNI YO 'LGA QO 'YISH VA MARKETING STRATEGIYALARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 315-324.
11. EI, I. (2024). BUXORO VILOYATIDA QISHLOQ XO 'JALIGI IQTISODIYOTNING YETAKCHI TARMOG 'I SIFATIDA. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 156-164.
12. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT VA UNING USULLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.
13. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Xizmat Ko 'Rsatish Korxonalari Faoliyatlarining Samaradorligini Oshirishning Tashkiliy Mexanizmini Takomillashtirish. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 608-615.
14. Ikromov, E. (2024). A METHODICAL APPROACH TO EVALUATING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(5), 180-188.
15. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF ETHICS AND CULTURE IN THE INTRODUCTION OF MODERN METHODS OF MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(5), 171-179.
16. Ibodulloyevich, I. E. (2024). MENEJMENTNING ZAMONAVIY USULBLARINI JORIY ETISHDA ETIKA VA MADANIYATNING AHAMIYATI.
17. Ikromov, E. (2024). CLASSIFICATION OF LEADERSHIP STYLES IN THE MODERN MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 615-621.
18. Ibodullayevich, I. E. (2024). Inqirozga Qarshi Choralar Dasturi Doirasida Kichik Biznes Va Xususiy Tadbirkorlik Subyektlarini Marketing Tizimi Asosida Rivojlantirish Muammolari. *Miasto Przyszłości*, 54, 1495-1503.
19. Ibodulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 321-325.
20. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR.
21. Ikromov, E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, 2(12), 1107-1111.

22. Ibodulloyevich, I. E. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 258-266.

23. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Tadbirkorlik Faoliyatini Davlat Tomonidan Qo 'Llab-Quvvatlanishi Va Sohaga Mintaqalar Miqyosida Investitsiya Jalb Qilish Samaradorligi. *Miasto Przyszłości*, 53, 515-523.

24. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 504-507.

25. Ibodulloyevich, I. E. (2024). DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR MEHNATINI TASHKIL ETISH VA SALOHİYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.

26. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TAMOIYILLARI VA USLUBLARIDAN FOYDALANISHDA RAHBAR MEHNATINING AHAMIYATI.

27. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMIDA RAHBARLIK USLUBLARINING TASNIFLANISHI.

28. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ISHLAB CHIQRISHDA RAHBAR MEHNATINING ASOSIY O 'RNI VA KORXONALAR IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 311-315.

29. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Respublikada Xizmatlar Sifati Va Raqobatbardoshligini Oshirish Orqali Xizmatlar Eksportini Rivojlantirish Istiqbollari. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 247-251.

30. Ikromov, E. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INCREASING THE QUALITY AND COMPETITIVENESS OF SERVICES. *Modern Science and Research*, 3(2), 803-810.

31. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT AND ITS METHODS. *Modern Science and Research*, 3(2), 811-819.

32. Ikromov, E. (2024). USE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE ORGANIZATION OF MANAGERIAL WORK IN PRODUCTION ENTERPRISES AND ITS IMPROVEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 820-828.

33. Ikromov, E. (2024). FOREIGN EXPERIENCES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 794-802.

34. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.

35. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUV.

36. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Ijtimoiy Soliq Stavkasini Kamaytirish Orqali Davlat Budjeti Daromatlarini Oshirish Imkoniyatlari. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 348-353.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

37. Ikromov, E. (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794-797.
38. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MANAGERIAL WORK IN THE USE OF MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES AND METHODS. *Modern Science and Research*, 3(1), 18-23.
39. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI.
40. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO 'NALISHLARI.
41. Bahodirovich, X. B. (2025). KORXONALARDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI TASHKIL QILISH. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 72-78.
42. Bahodirovich, X. B. (2025). O 'ZBEKISTONDA SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 47-53.
43. Bahodirovich, X. B. (2025). RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH AMALIYOTI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 29-34.
44. Bahodirovich, X. B. (2025). SUG'URTA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 37-43.
45. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 559-568.
46. Tohir o'g'li, M. T., & To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION SIYOSAT. *ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATION TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(14), 45-53.
47. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2025). IQTISODIYOTNI RAQAMLI KO 'RSATISHDA SANOATNING O 'RNI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 42-50.
48. To'rayevna, S. N. (2024). TEXNOLOGIYA DISKURSI VA YANGI MEDIA SIYOSIY IQTISODIYOTI.
49. To'rayevna, S. N. (2024). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATION SIYOSAT VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.
50. To'rayevna, S. N. (2024). KORXONALARDA INNOVATION LOYIHALARNI BAHOLASH TARTIBI VA TANLASH USULLARI.
51. Sodikova, N. (2024). THE MAIN DIRECTIONS OF PROVIDING THE BUSINESS SECTOR WITH QUALIFIED PERSONNEL. *Modern Science and Research*, 3(1), 133-139.
52. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). PANDEMIYA SHAROITIDA O 'ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTIDAGI TARKIBIY O 'ZGARISHLARNI

TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI VA ISTIQBOLDAGI IQTISODIY O 'SISH PROGNOZLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 111-123.

53. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT TARMOQLARIDAGI TARKIBIY O 'ZGARISHLAR VA ULARNI BAHOLASH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 101-110.

54. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O 'ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH YO 'NALISHLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 245-254.

55. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). O 'ZBEKISTONDA EKSPORT-IMPORT KO 'RSATKICHLARINING TAHLILI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 151-159.

56. Hakimovich, T. M., & Abidovna, A. S. (2025). JAHON SAVDO KO 'RSATKICHLARI ISTIQBOLI VA BUNDA O 'ZBEKISTON EKSPORTCHI KORXONALARI UCHUN IMKONIYATLAR. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 236-244.

57. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). АНАЛИЗ БЕЗРАБОТИЦЫ В РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАНАХ АФРИКИ И УЗБЕКИСТАНЕ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 122-128.

58. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВВП СТРАН ЕВРАЗИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОЮЗА (ЕАЭС) И УЗБЕКИСТАНА. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 149-156.

59. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). СПРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УРОВНЯ ИНФЛЯЦИИ В СТРАНАХ ЕС И УЗБЕКИСТАНЕ. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 206-212.

60. Abidovna, A. S., & Sadilloevna, D. M. (2024). THE IMPACT OF MANAGEMENT PRACTICES ON INNOVATION IN ENTREPRENEURSHIP. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 232-237.

61. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). TEXNOLOGIK JARAYONNING TANNARXINI HISOBLASH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 17-23.

62. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASH, XARAJATLARNI TAHLIL QILISH YONDASHUVLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 47-53.

63. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2025). IQTISODIYOTNI RAQAMLI KO 'RSATISHDA SANOATNING O 'RNI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 42-50.

64. Azimov, B. F., Shadiyev, A. X., & Qudratova, G. M. (2025). YENGIL SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYALAR. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 15-22.

65. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). TANNARXNI HISOBGA OLISH VA UNI OPTIMALLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(5), 40-46.

66. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). KORXONALAR MAHSULOTLARI TANNARXINI ANIQLASHDA QO'LLANILADIGAN USULLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 54-61.

67. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). XARAJAT TUSHUNCHASI VA MAHSULOT TANNARXINI SHAKLLANTIRISH: NAZARIYA VA AMALIYOT. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(4), 79-85.

68. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). STANDARTLARGA MUVOFIQ XARAJATLARNI HISOBLASH USULI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 62-68.

69. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). BUYURTMA BO'YICHA XARAJATLARNI HISOBLASH USULI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(3), 24-30.

70. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). ENTERPRISE MARKETING STRATEGY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 259-265.

71. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARI INNOVATSION STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH JARAYONI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 193-198.

72. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARI INNOVATSION STRATEGIYALARINING IERARXIK TUZILISHI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 187-192.

73. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). TIKUVCHILIK SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION STRATEGIYALARINI QOLLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 325-330.

74. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYANI SHAKLLANTIRISH VA AMALGA OSHIRISHNING DOLZARBLIGI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 183-187.

75. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOTNING MOLIVAVIY REJASI VA UNING MUVAFFAQIYATGA TA'SIRI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, 2(1), 8-14.

76. Raxmonqulova, N. O. (2025). HODIMLARNI RAG 'BATLANTIRISH VA MOTIVATSIYA ORQALI ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 2(1), 29-35.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

77. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOT MAQSADLARINI BELGILASH VA ULARGA ERISHISH BO 'YICHA STRATEGIK REJALASHTIRISH JARAYONLARI. *Science, education, innovation: modern tasks and prospects*, 2(1), 22-28.
78. Hakimovich, T. M. (2025). PRIORITIES FOR DEEPENING STRUCTURAL CHANGE IN THE ECONOMY. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(01), 84-90.
79. Hakimovich, T. M. (2025). HUDUDLAR IQTISODIYOTINI JADAL RIVOJLANTIRISH BO'YICHA STRATEGIYALARNING QO'LLANILISHI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(4), 129-136.
80. Bazarova, M. (2025). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT MOLIYASI TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *Modern Science and Research*, 4(1), 29-36.
81. Shadiyev, A. X. (2025). A MODERN APPROACH TO THE METHODOLOGY OF TEACHING ECONOMIC DISCIPLINES. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 12(01), 134-139.
82. Khudoynazarovich, S. A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara State University. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 153-159.
83. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KORXONA VA TASHKILOTLARDA PERSONALNI BOSHQARISH TIZIMI VA TAMOYILLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 685-690.
84. Shadiyev, A. (2024). TA'LIM MENEJMENTI. TA'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA QARORLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
85. Olimovich, D. I., & Khudoynazarovich, S. A. (2020). The cost-effectiveness of improving the quality of hotel services. *Academy*, (4 (55)), 40-42.
86. Khudoynazarovich, S. A. (2023). CREATING VALUE IN A TOURIST DESTINATION.
87. Akbarovna, N. N. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 107-112.
88. Akbarovna, N. N. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT METHODS IN AN INNOVATIVE ECONOMY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 407-412.
89. Akbarovna, N. N. (2024). MILLIY IQTISODIYOTNI TAHLIL QILISHDA QO 'LLANILADIGAN ASOSIY KO 'RSATKICHLAR. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 278-283.
90. Azimov, B. F. (2024). MOLIYAVIY SEKTORDA STATISTIK KUZATISH VA UNING USULLARI. *XALQARO KONFERENSIYA VA JURNALLARNI SIFATLI INDEXLASH XIZMATI*, 1(1), 28-31.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

91. Жумаева, З. К. (2019). Современные Тенденции И Направления Развития Инвестиционной Деятельности В Регионах Республики Узбекистан. *Современные Проблемы Социально-Экономических Систем В Условиях Глобализации*, 148-152.

92. Jumayeva, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).

93. Bustonovna, J. Z. (2024). JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEKANIZIMINI TAKOMILASHTIRISH.

94. Bustonovna, J. Z. (2024). IQTISODIY MUAMMOLARNI HAL QILISHDA BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING MUHIM SHARTLARI. *Miasto Przyszłości*, 55, 1436-1440.

95. AT, I. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 319-326.

96. AT, I. (2024). IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA INVESTITSIYA QILISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 149-155.

97. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.

98. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.

99. Джураева, М. С. (2025). АВТОНОМНЫЕ И ИНТЕГРИРОВАННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(4), 135-141.

100. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). BARQAROR RIVOJLANISHGA O'TISH SHAROITIDA ISHLAB CHIQRISHNI BOSHQARISH VA TASHKIL ETISH. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 307-312.

101. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 93-99.

102. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). IQDISODIY NOCHOR KORXONALAR TAHLILI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 284-292.

103. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). MINTAQADA MEHNAT BOZORI. MEHNAT BOZORINI TARTIBGA SOLISHNING XUDUDIY ASOSLARI, AHOLI BANDLIGI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YOLLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 307-309.